



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

INSON QADR-QIMMATINI IFODALOVCHI METAFORIK MAQOLLAR (“Qo‘y” LMG misolida)

Bibish Jo‘rayeva*
Maftuna Sharipova*

Annotatsiya

Mazkur maqolada “qo‘y” LMGga oid birliklar qatnashgan o‘zbek xalq maqollari, ularning etimologiyasi, xalqimiz turmush tarziga aloqador urf-odat, milliy marosim, diniy qarashlar kabi tushunchalar o‘z ifodasini topgan. Dastlab metaforaga oid nazariy qarashlar bayon etilgan. Shuningdek, badiiy asarlar tarkibidan ushbu maqollarning semantik xususiyatlari batafsil izohlangan. Mazkur maqollarning sinonimik, antonimik, ko‘p ma‘nolilik, variantlilik imkoniyatlari ochib berilgan hamda ifodalaydigan ma‘nosiga ko‘ra mavzuviy guruhlarga ajratilgan. Maqolada ayrim milliy paremlar o‘zga xalq maqollari bilan taqqoslanib, ularning o‘xshash hamda farqli jihatlari yoritilgan. Bundan tashqari, maqol tarkibidagi “qo‘y” LMGga oid leksemalar darajalanish xususiyatiga ko‘ra tartiblangan. Izlanish davomida kuzatish, tavsiflash, qiyoslash metodlaridan foydalanilgan. Lingvopoetik tahlil orqali metafora hodisasi kuzatiladigan maqollarning til xususiyatlari, ma‘no qatlamlari, ijtimoiy ahamiyati, xalqning ruhiy dunyosi kabilar o‘rganilishi asoslangan. Metafora bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o‘rtasidagi ma‘lum o‘xshashlik asosida ko‘chishdir. Hayotimizni metaforalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. U milliy dunyoqarashni ifodalovchi vositalardan biridir. F. Nitsshe ta’kidlaganidek, metaforani inkor qilish – insonni inkor etishdir. O‘zbek tilida bir qator maqollar inson qadr-qimmatini turli darajada ifodalash maqsadida qo‘llanilishi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: maqol, lug‘aviy ma‘noviy guruh, metafora, o‘xshatish, qo‘y, chorva nomlari, darajalanish, aspekt, assotsiatsiya, parema.

Metaphorical Proverbs Expressing Human Dignity (On The Example Of The “Sheep” LMG)

Abstract

This article presents Uzbek folk proverbs, in which units related to the “sheep” LMG are present, their etymology, concepts such as customs related to the lifestyle of our people, national rituals, and religious views. Initially, theoretical views on metaphor are outlined. Also, the semantic features of these proverbs from the content of literary works are explained in detail. The synonymous, antonymic, polysemous, and variant possibilities of these proverbs are revealed and divided into thematic groups according to the meaning they express. The article compares some national proverbs with other folk

* Filologiya fanlari doktori, professor Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Buxoro viloyati hududiy bo‘linmasi rahbari. bibish.jayeva@mail.ru

* BuxDU dotsenti, f.f.f.d. (PhD) behruz.lux.stal@93gmail.com

proverbs, highlighting their similarities and differences. In addition, the lexemes related to the “sheep” LMG in the proverb are arranged according to their gradation. The methods of observation, description, and comparison were used during the research. Through linguopoetic analysis, the linguistic features of proverbs in which the phenomenon of metaphor is observed, their layers of meaning, social significance, and the spiritual world of the people are studied. Metaphor is the transfer of the name of one object to the name of another object based on a certain similarity between them. Our life cannot be imagined without metaphors. It is one of the means of expressing the national worldview. As F. Nietzsche noted, to deny metaphor is to deny man. It was found that a number of proverbs in the Uzbek language are used to express human dignity to various degrees.

Keywords: proverb, lexical semantic group, metaphor, simile, sheep, animal names, gradation, aspect, association, parema.

Mustaqillik yillari o‘zbek tilshunosligida metafora va metaforizatsiyaga tegishli dolzarb masalalarni butun-qism munosabatida tekshirishning ko‘p yillik tajribasi uni butundan qismga emas, qismdan butunga tamoyili asosida tekshirish, mazkur tadqiqotchilik jarayoniga formal, substansional yo‘nalishdan farqli, antroposentrik jihatdan yondashish zarurligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbek tilshunosligida metaforalarning o‘rganilishi XX asrning o‘rtalaridan boshlab, R.Qo‘ng‘irov, M.Mirtojiyev, M.Yo‘ldoshev, N.Mahmudov, D.Xudoyberganova, G.Qobuljonovalar tomonidan amalga oshirgan tadqiqotlarda o‘z ifodasini topdi. Milliy tilshunoslikda metafora hodisasi nazariy va lingvopoetik jihatdan tadqiq etilgan. Ularda, asosan, so‘z-metaforalar haqida fikr yuritilgan. Biroq o‘zbek antroposentrik tilshunosligi bo‘yicha mukammal tadqiqot yaratgan D.Xudoyberganova metafora qo‘llangan matnlarda, nafaqat, tushuncha, balki muayyan vaziyat ifodasi ham metaforalarga asoslanadi, shu boisdan, metaforalarni so‘z, so‘z birikmasi, gap, matn shaklidagi metaforalar sifatida o‘rganish maqsadga muvofiqligini ta’kidlaydi.

Til insonning tafakkuriga qaratilgan tarjimon, shunga muvofiq, uning ushbu “tarjimonlik” ishida, asosan, ekspressiv-baholovchi konnotatsiyalarni ifoda etuvchi obrazli metaforalar yuzaga chiqadi. Sh.Maxmaraimova metaforaga aynan bilishning yirik birligi, fikriy faollashuv vositasi, olamni tushunish, baholash usuli bo‘lganligidan, umumfanlar ko‘lamida o‘zidagi evristik salohiyatni namoyon etadigan, inson ongining butun mohiyati, imkoniyatlari “eshigini ochib beruvchi” olam haqidagi empirik hamda transformatsiyalangan bilimlarni qayta ishlashda faol ishtirok etadigan, inson hayotiy tajribasini mazkur bevosita (ongosti) va bilvosita “ishlov berish” jarayoniga uyg‘unlashtirib yuboradigan vosita sifatida qaraydi [Maxmaraimova, 2020, 160-bet]. Taqqidqotchining fikriga ko‘ra, **metafora** –

gnoseologik maqsadlarga yo‘l beruvchi umumiy bilimlarga ishora qiladi; insonning insoniyligini belgilovchi ruhiy dunyosi – “ko‘rinmas olami”ga aloqador bo‘lgan belgi anglatuvchi leksikaning shakllanishiga xizmat qiladi [Maxmaraimova, 2020, 183-bet].

Metaforik maqollarni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish orqali ularning qay tarzda xalq tiliga ko‘chganligi, paydo bo‘lish tarixi, konseptual sistemasi, xalqning hayot tarzi kabi masalalar hisobga olinadi. Bu jarayonda, odatda, inson omili yetakchilik qiladi. “Qo‘y” LMGi asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarining aksariyat qismida, asosan, insonning psixik holati tasvirlangan o‘rinlarning ko‘pligi ahamiyatlidir. Psixika – borliqning sezgi organlari orqali insonning miyasiga bevosita ta’sir etishi asosida vujudga kelib, bilish jarayonlarida, shaxsning xususiyati va holatlarida, diqqati, his-tuyg‘u, qiziqishi hamda ehtiyojlarida o‘z ifodasini topadi. Ular, odatda, tashqi ta’sir natijasida yuzaga keladi. Tarkibida “Qo‘y” LMGi ishtirok etgan maqollarni inson qadr-qimmatini ifodalashiga ko‘ra bir necha ichki turlarga ajratish mumkin:

1) insonning qadr-qimmatini nisbatan ifodalovchi

O‘zbek tilida bir qator maqollar inson qadr-qimmatini turli darajada ifodalash maqsadida faol qo‘llanadi. Jumladan, *Toycha oti bo‘lmasa ham, Qo‘ycha oti bor* (toy – otning bir yoshdan ikki yoshgacha bo‘lgan bolasi [O‘TIL, 1981, 281-bet). O‘rta Osiyo hududida yashagan ko‘chmanchi va yarim o‘troq aholining diniy-mifologik qarashlariga ko‘ra toy hamda qo‘y zoonimlariga qut-baraka timsoli sifatida qaralgan. Ikkinchidan, toy – qo‘y leksemalarining hajm-miqdor jihatdan ham o‘xshashligi (bundan tashqari, qofiyadoshlik asosida tanlanganligi *toy-qo‘y*) mavjud. Xususan, Y.A.Turdimuratovning “XX asrda Surxon-Sherobod vohasi areal xo‘jalik madaniyati” (chorvachiligi misolida) deb nomlangan tadqiqot ishida ot bilan bog‘liq xalq qarashlari uning ijtimoiy hayotda nafaqat transport vositasi va xo‘jalikdagi ishchi kuchi sifatida, balki uni balo-qazolardan himoya qiluvchi jonivor va **qut-baraka** ramzi sifatida biluvchi magik qarashlar ham mavjud bo‘lganligi haqida ma’lumot berib o‘tadi [Turdimuratov, 2019, 22-bet]. Maqolda qo‘llangan toycha – qo‘ycha leksemalari inson qadr-qimmatining “yuqori” hamda “past” darajasini ifodalashga xizmat qilgan hamda maqolda kontekstual antonimiya hodisasini yuzaga keltirgan. *Toycha – qo‘ycha* zoomorflaridagi “toy kabi” o‘xshatishi insonning yuqorida darajadagi qadr-qimmatini, “qo‘y kabi” shakli esa insonning past darajadagi qadr-qimmatini ifodalashga xizmat qilganini kuzatish mumkin.

2) insonning yuqori darajadagi qadr-qimmatini ifodalovchi

Insonning turli xarakter-xususiyatini ifodalashda hayvonning jonli mavjudot sifatidagi jihatlarini atovchi leksemalar keng qo‘llaniladi va bunda metaforik modellar ishga tushadi. *Eshakning boshi bo‘lguncha, Qo‘yning oyog‘i bo‘l*. Qadimiy diniy tasavvurlarga ko‘ra, “qo‘y” insonni muhofaza etuvchi jonivor hisoblanib, bu

uning e'zozlanishi sabablaridan bo'lgan. “*Qo'y*”ning ins-u jinslarga va yomon ko'zlarga nisbatan himoyachi hisoblanganligidan ularga boshqa jonivorlar kabi tumor taqilmagan. Bundan tashqari, chorvachilik xo'jaligidagi ayrim anjomlarga (*cho'pon tayog'i, no'xta, tizgin, yugan* (jugan), *qo'riq* (otlarni ilintiruvchi vosita) va boshqalarga muqaddas buyumlar sifatida qaralgan. Cho'ponlarning asosiy ish quroli bo'lgan tayog'i ham o'ziga xos magik (afsungarlik) xususiyatiga ega, deb hisoblangan [Turdimuratov, 2019, 20-bet]. Eshak hayvonlar ichida qimmat va qiymat jihatdan past sanaladigan jonivorlardandir (“It izzatni bilmaydi, eshak – tarbiyani”; Eshakning piri – shayton [Анхаев, 1960, 78-bet]. Shu tufayli baraka timsoli bo'lgan qo'yga nisbatan zid qo'llanishi tabiiy. Qo'y halollik ramzi, eshak esa aksincha. Turli xalq paremlarida ham eshak qadrsiz hayvon sifatida ifodalanishini kuzatish mumkin. (“*Fikrlar - taxtda, eshak – loyda*” qalmiq xalq maqoli). **Maqolda eshak – qo'y zoonimlari; bosh – oyoq leksemalari kontekstual antonimiya hodisasini yuzaga keltirishga xizmat qilgan.** Katta mansab, martabaga erishmoqchi bo'lgan kishidan ko'ra halol, mehnatkash, kichik martabasidan baraka topgan, insonlarga foydasi tegadigan kishi afzal degan ma'noda qo'llanadi. Mazkur maqolning variantlari: “Eshakning boshi bo'lguncha, qo'yning quyrug'i bo'l” (o'zbek xalq maqoli), ma'nodoshlari Filning dumi bo'lishdan ko'ra, tuyaning boshi bo'lish yaxshidir (qalmiq xalq maqoli). Bundan tashqari, *Echkining boshi bo'lguncha, Qo'yning quyrug'i bo'l*. Echkining boshi bo'lishdan, qo'yning quyrug'i (ayn. dum ma'nosida bu quyruqning o'z ma'nosi, ko'chma ma'noda esa *doim birovga ergashib yuradigan, uning xizmatiga tayyor turadigan shaxs haqida, dum*. Soli sovuq o'z quyrug'iga buyurdi. – Jumanboy, pastdan palos olib boring, chopping (M.Ismoiliiy. Farg'ona t.o.) bo'lgan afzal. Shuningdek, *Topgan qo'y keltirar, Topmagan jo'jaxo'roz* maqolida “qo'y” LMGi orqali boy, o'ziga to'q kishilar qadrli, yuksak e'zoz-e'tiborga loyiq kishilarga o'z himmatini “qo'y” berish orqali namoyon etishi, jo'jaxo'roz (yosh, urushqoq xo'roz) leksemasi orqali esa, aksincha, “qo'li kalta” insonlar imkoniyati darajasidan kelib chiqqan holda ish ko'rishi ifodalangan. Mazkur maqolda “qo'y” LMGi hurmat, yuksak e'tibor, qadr-qimmat ma'nolarini ifodalab kelgan. Ijtimoiy hayotda inson turmush-tarzi, yashash sharoiti, moddiy ta'minoti bir maromda kechmagani sabali to'y, marosim, tadbirlarda in'om sifatida etiladigan uy hayvonlari ham turli xil bo'lgan. Masalan, kim uchundir toy eng qimmatbaho tortiq, sovg'a hisoblansa, boshqa birov uchun xuddi shu vazifani qo'y bajargan.

Xulosa qilib aytganda, xalqning tilda aks etgan madaniy o'ziga xosligi ijtimoiy-maishiy, tarixiy, geografik, psixologik kabi omillar bilan bog'liq bo'lib, ular xalq moddiy va ma'naviy hayotining umuminsoniy emas, balki o'ziga xos milliy-mental xususiyatlarini ifodalashga xoslangan bo'ladi. Chorva nomlari tarkibiga kiruvchi “Qo'y” LMGi ishtirok etgan maqollardagi metafora hodisasi insonning *ko'rinishi yoki holati, kuch-qudrati, ojizligi, qadr-qimmatini* (insonning qadr-qimmatini nisbatlab

ifodalovchi, insonning yuqori darajadagi qadr-qimmatini ifodalovchi), *salbiy xususiyatlari, ijobiy xislatlarini* ifodalovchi ma’naviy guruhlarda namoyon bo‘lishi ayonlashdi hamda ushbu guruhga kiruvchi 30ga yaqin maqollar mavjudligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Mahmudov N., Xudoyberganova D. (2013). *O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati*. Ma’naviyat. Toshkent.

Махмараимова Ш.Т. (2020). *Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи (номинатив аспект)*. Филология фанлари бўйича фан доктори (DSc) дисс... Самарқанд.

Rahmatullayev Sh. (2000). *O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (turkiy so‘zlar)*. Universitet. Toshkent.

Turdimuratov Y.A. (2019). *XX asrda Surxon-Sherobod voҳasi areal хўжалик маданияти (чорвачилиги мисолида)*. Toshkent.

Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки жилдлик. 1-жилд. А-Р. (1981) Рус тили. Москва.